

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/28.02.2023.B.60.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

SUYAROV SULTON ALLABERDIYEVICH

**O'RTA ZARAFSHON SUV EKOTIZIMLARI GIDROBIONTLARI
FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Suyarov Sulton Allaberdiyevich

О‘рта Зарафшон сув екотизимлари гидробiontlari
faunasi va ekologiyasi..... 3

Суяров Султан Аллабердиевич

Фауна и экология гидробионтов водных
экосистем Среднего Зарафшана..... 21

Suyrov Sulton Allaberdievich

Fauna and ecology of hydrobionts of aquatic ecosystems
of the Middle Zarafshan..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/28.02.2023.B.60.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

SUYAROV SULTON ALLABERDIYEVICH

**O'RTA ZARAFSHON SUV EKOTIZIMLARI GIDROBIONTLARI
FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/B616 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashov Mansur Arzikulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Sheraliyev Baxtiyor Maxmutali o'g'li
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/28.02.2023.B.60.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 22 avgust kuni soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy, Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazi, 3-qavat, 301-xona. Tel./faks: +99874 223-88-30, e-mail: agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (187^D – raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: +99874 223-88-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 6 avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil 6 avgustdagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).

Yuldashev Akramjon Sultanmuradovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Umarov Farrux Ulugbekovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent

Zokirov Islomjon Ilxomjonovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
biologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qurg‘oqchilikning kengayishi, tabiiy suv havzalari biologik xilma-xilligining qisqarishi suv ekotizimlarining inqiroziga olib kelmoqda. Tabiiy suv havzalarida tarixan shakllangan gidrofauna turlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, antropogen va texnogen omillar ta‘sirida ular biotoplarining o‘zgarishi gidrobiontlar faunasi transformatsiyasiga va noyob turlarning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu boisdan, kuchli antropogen ta‘sir ostidagi hududlar gidrobiontlari populyatsiyalarining o‘zgarishini aniqlash va muhofazaga muhtoj turlarini saqlab qolish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli suv havzalarida tarqalgan gidrobiontlarni saqlab qolish zamirida turlar tarkibini aniqlash, ularga abiotik va antropogen omillarning ta‘sirini baholash hamda ekologik xususiyatlarini ochib berish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarga e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘kidlash joizki, global iqlim o‘zgarishi ta‘siri ostida suv havzalarida tarqalgan gidrobiontlarning qisqarishi, migratsiyasi, jamoalarining transformatsiyasi, invaziv turlar tarqalishining ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Shunga ko‘ra, suv ekotizimlarida gidrobiontlarning zamonaviy holatini baholash, bioxilma-xillikni, kamyob va endemik turlarni aniqlash, ularni tarqalishi bo‘yicha geoaxborot ma‘lumotlarni shakllantirish, inqirozga moyil populyatsiyalarni aniqlash, muhofazalashga oid tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda suv havzalarining hayvonot dunyosi bioxilma-xilligini muhofaza qilish va ekotizim barqarorligini ta‘minlash borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Bu borada, suv ekotizimlari barqarorligini ta‘minlash, hayvonlarning noyob va kamayib borayotgan turlarini saqlab qolish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda atrof muhitni kuzatish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O‘rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlarining tur tarkibini aniqlash, ularning xilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta‘sirini baholash hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish choralari ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” 2016-yil 19-sentyabrdagi 408-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni va “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 25-sentyabrdagi PQ-3286-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992 yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” 1995-yil 6-maydagi 82-I-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Qizil

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritish tartibi to‘g‘risida” 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son hamda “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy–huquqiy hujjatlarda ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hidrobiontlarning sistematikasi, ekologiyasi, muhofazasi va ulardan foydalanishga oid tadqiqotlar xorijlik olimlardan zuluklar bo‘yicha F.R.Govedich et al. (2003), B.Sket va P.Trontelj (2008); mollyuskalar bo‘yicha U.Kutschera va M.Roth (2006), C.C.Vaughn va Ch.C.Hakenkamp (2008), A.E.Bogan va K.J.Roe (2008), M.Lopes-Lima, L.E.Burlakova, A.Y.Karatayev, K.Mehler, M.Seddon va R.Sousa (2018), A.Wiktor (2000), T.D.Robert (2004), B.A.Gumus (2023); yuksak qisqichbaqalar bo‘yicha H.Baytashoglu (2023), N.Peer, G.Gouws, L.Maliwa, N.Barker, P.Juby, R.Perissinotto (2023) ishlarida o‘z ifodasini topgan.

MDH mamlakatlari olimlari, xususan, zuluklarga oid S.Utevsky (2009), L.V.Chernaya (2015), L.I.Fedorova (2018), I.A.Kaygorodova (2020); mollyuskalarga oid V.B.Bogatov, Y.I.Strobogatov (2004, 2005), N.I.Andreev (2010), M.O.Son (2010), A.L.Rijinashvili (2009), L.N.Yanovich (2013), D.B.Kuzmenkin (2015); yuksak qisqichbaqalarga oid V.S.Labay (2011), Yu.N.Makarov (2004) tomonidan gidrobiontlarning biologik xilma-xilligi, taksonomik tarkibi, zichligi, populyatsiyalari va indikatorlik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda gidrobiontlarga oid tadqiqotlar A.Muhammadiyev (1986), Z.I.Izzatullayev (2018, 2019), A.Kuzmetov (1997, 2020), X.T.Boymurodov (2017, 2021), I.M.Mirabdullayev (1998, 2022), X.X.Solijonov (2023), M.B.Xojiyev (2024) va boshqalarning ilmiy ishlarida aks etgan bo‘lib, ularda asosan faunistik izlanishlar olib borilgan. Ammo, O‘rta Zarafshon suv havzasi gidrobiontlari tur tarkibi, ekologiyasi, bioxilma-xilligi, turli suv ekotizimlarida tarqalishi, abiotik va antropogen omillarning ta‘siri hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid tadqiqotlar to‘liq o‘rganilmagan. Shunga ko‘ra, O‘rta Zarafshon suv ekotizimi gidrobiontlarining faunasi, ekologiyasi, ularning xilma-xilligiga abiotik va antropogen omillar ta‘sirini tahlil qilish va baholash hamda kamyob turlarini muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlari rejasiga muvofiq Bio-01-2021 “Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonning hayvonot dunyosi faunasi, tarqalishi, ekologiyasi va muhofazasi hamda ulardan ratsional foydalanish” mavzusi doirasida (2020-2022) va ALM202303153-01 “O‘zbekiston zuluklari (Hirudinea): turlar tarkibi, bioekologik xususiyatlari, suv tiplarida tarqalishi, xo‘jalikdagi ahamiyatini o‘rganish va noyob

turlarni muhofaza qilish choralari ishlab chiqish” (2023-2026) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlarining (Hirudinea, Bivalvia, Gastropoda, Malacostraca) bioxilma-xilligini aniqlash, ularga ekologik omillarning ta’sirini ochib berish va kamyob turlarni muhofaza qilish choralari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlaridan zuluklar, mollyuskalar va yuksak qisqichbaqalarning tur tarkibini aniqlash hamda zamonaviy holatini baholash;

gidrobiontlarning turli biotoplarda tarqalishi, populyatsion zichligini aniqlash va ekologik guruhlariga ajratish;

gidrobiontlarning tarqalishiga abiotik va antropogen omillar ta’sirini o‘rganish; abiotik omillar ta’sirida ikkipallali mollyuskalarda yuz beradigan konxologik o‘zgaruvchanlikni aniqlash;

suv havzalarini ekologik baholashda bioindikator gidrobiontlarning saproblik xususiyatlarini ochib berish;

muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O‘rta Zarafshon suv ekotizimlarida tarqalgan zuluklar, suv mollyuskalari va yuksak qisqichbaqalar olingan.

Tadqiqotning predmeti. O‘rta Zarafshon suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlar taksonomiyasi, ekologik xususiyatlari, biologik xilma-xilligi, konxologik o‘zgaruvchanligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada gidrobiologik, malakologik, girudologik, ekologik, biometrik, molekulyar-genetik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘rta Zarafshon suv ekotizimlarida ilk bor zuluklarning 5 oilaga mansub 8 turi, ikkipallali mollyuskalarning 3 oilaga mansub 12 turi, qorinoqqli mollyuskalarning 4 oilaga mansub 14 turi va yuksak qisqichbaqaning 1 turidan iborat taksonomik ro‘yxati tuzilgan hamda tadqiqot hududi faunasi uchun 7 tur aniqlangan;

tadqiqot hududida tarqalgan *Euglesa turkestanica* Izzatullaev, 1974, *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823) turlarining rDNKsi (ITS) nukleotidlar ketma-ketligi hamda *Corbicula ferghanensis* Kursalova et Starobogatov, 1971, *Corbicula fluminalis* (Müller, 1774)larning mDNK (COI) geni nukleotidlari asosida molekulyar identifikatsiyalangan;

turli suv biotoplarida gidrobiontlarning taqsimlanish va populyatsion xususiyatlari ochib berilgan;

gidrobiontlarning ekologik guruhlari tavsiflangan hamda suvlarning saproblik darajasini aniqlashda bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan;

abiotik va antropogen omillarning gidrobiontlar tarqalishiga va ulardagi o‘zgaruvchanlikka ta’siri isbotlangan;

muhofazaga muhtoj turlarning cheklovchi omillari isbotlangan va ularni saqlab qolishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muhofazaga muhtoj tibbiyot zuluklaridan *Hirudo orientalis* Utevsky et Trontelj, 2005; ikkipallali mollyuskalardan *Euglesa turkestanica* Izzatullaev, 1974; qorinoyoqli mollyuskalardan *Martensamnicola brevicula* (Martens, 1874), *M. hissarica* (Shadin, 1950), *Bucharamnicola bucharica* (Shadin, 1952) populyatsiyalarining zamonaviy holati baholangan va ularni saqlab qolish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

gidrobiontlarning tarqalishiga oid GAT-xaritlar ishlab chiqilgan, hamda ular asosida hududlar suv ekosistemalarining populyatsion ko'rsatkichlarini aniqlash, noyob turlarning arellarini muhofazalash samaradorligi asoslangan;

ayrim gidrobiontlarning suv ekosistemalaridagi bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan gidrobiologik, malakologik, girudologik metodlar va yondashuvlar asosida olingan tajriba natijalarini nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, biometrik ma'lumotlarni statistik tahlil qilinganligi, tadqiqotning asosiy natijalarini yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilganligi, shu bilan birgalikda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'rta Zarafshon suv ekotizimlari zuluklari, suv mollyuskalari va yuksak qisqichbaqalarining tur tarkibi aniqlanganligi, turli biotoplarda tarqalish xususiyatlari, populyatsiya va organizm ko'rsatkichlariga abiotik hamda antropogen omillar ta'sirining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, *Hemiclepsis marginata*, *Martensamnicola brevicula*, *M. hissarica*, *Bucharamnicola bucharica*, *Alboglossiphonia hyalina*, *Helobdella stagnalis*, *Sinanodonta gibba*, *Lymnaea stagnalis* va *Costatella acuta* turlarning bioindikator xususiyatlari orqali turli darajada organik ifloslangan suv havzalarining saproblik darajasini baholashda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida gidrobiontlarning tarqalishi, tur tarkibi va ekologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

35 tur gidrobiontlarning ro'yxati keltirilgan bo'lib, ularning ekologik tavsifi, tarqalishi, bioxilma-xilligi, abiotik va antropogen omillarning ta'siri, xo'jalikdagi ahamiyati hamda muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid yangi ma'lumotlar va ishlab chiqilgan tavsiyalar Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 18- martdagi 03-03/3-2626-son ma'lumotnomasi). Natijada, Zarafshon daryosi havzasi bioxilma-xilligining davlat monitoringini olib borish, hayvonot dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish hamda gidrobiontlarning zamonaviy tur tarkibi, arellari va geoaxborot ma'lumotlari bazasini shakllantirish imkonini bergan;

O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida uchraydigan gidrobiontlarning bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan hamda Samarqand viloyati Ekologiya,

atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi faoliyatida suv havzalarini ekologik baholash amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 18-martdagi 03-03/3-2626-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv havzalarining organik ifloslanganlik (saproblik) darajasini aniqlash va ekologik baholash imkonini bergan;

O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida gidrobiontlarning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar global bioxilma-xillik axborot bazasiga (GBIF, www.gbif.org) joylashtirilgan (Global bioxilma-xillik axborot bazasi sertifikat, www.gbif.org, 2024-yil 8-fevral). Natijada, O'rta Zarafshon hududidagi gidrobiontlar tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlardan xalqaro miqyosda foydalanish imkonini bergan;

Corbiculina ferghanensis Kursalova et Starobogatov, 1971 turining mtDNK COI geni nukleotidlar ketma-ketligi fragmentlari aniqlanib, olingan natijalar Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBanki bazasida PP239092 inventar raqami orqali ro'yxatga olingan (National Center for Biotechnology Information, 2024-yil 5-fevraldagi ma'lumotnoma, www.blast.ncbi.nlm.nih.gov). Natijada, dunyoning turli mintaqalarida tarqalgan ikkipallali mollyuska turlarining identifikatsiyasi va filogenetik tahlili bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi tarkibini boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 119 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekt va predmetlari, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.


Dissertatsiyaning **“O'rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlarining o'rganilishiga oid tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston va unga yondosh hududlar gidrobiontlari faunasining o'rganilish tarixi, ularning ekologiyasiga oid olib borilgan tadqiqotlar tahlili bayon qilingan.

Olib borilgan adabiyotlar tahlillariga ko'ra O'zbekiston va unga yondosh hududlar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari hududlarida o'tgan asr davomida gidrobiontlarining taksonomiyasi, zoologiyasi, morfologiyasi va tarqalishiga oid

tadqiqotlar olib borilganligini e'tirof etish mumkin. Lekin, O'rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlari faunasi va ekologiyasiga oid izlanishlar qisman olib borilgan, ular ham fragmental ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shu vaqtgacha olib borilgan barcha fundamental ishlar o'tgan asrning 30-80-yillariga to'g'ri keladi. Shu sababdan, tadqiqot hududida tarqalgan gidrobiontlarning taksonomik tarkibi to'g'risida yagona fikrning mavjud emasligi, shuning bilan bir qatorda ularning ekologiyasi hamda muhofazaga muhtoj turlar to'g'risidagi ma'lumotlarning kamligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab bergan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi, materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududi tabiiy-geografik tavsifi, materiallar va ularni ekologik o'rganish hamda molekulyar-genetik tahlil usullari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

O'rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlarini tadqiq qilish 2017-2023 yillar davomida olib borildi. Tadqiqot materiallari O'rta Zarafshonning turli suv tiplaridan: daryolar, suv omborlari, kanalar, buloqlar va chashmalardan jami besh yuzga yaqin namunalar olinib, yig'ilgan gidrobiontlar soni 3300 dan ortiqni tashkil qiladi (1-rasm). Materiallarni terish daryo havzasini tarmoqlanishi bo'ylab marshrutli amalga oshirildi. Statsionar kuzatuv va amaliy tajribalar Zarafshon daryosining Jomboy hamda Oqdaryo tumanlaridan oqib o'tuvchi qismlarida olib borildi.



1-rasm. Tadqiqot hududi: O'rta Zarafshon havzasi

Terilgan materiallar Samarqand davlat universitetining Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish” hamda “LeechLab – Girudologiya” laboratoriyalarida o'rganildi va tur darajasigacha aniqlandi. Molekulyar-genetik tahlillar O'zbekiston Respublikasi Zoologiya instituti laboratoriyasida olib borildi.

Materiallarni tur darajasigacha aniqlashda E.I.Lukin (1976), Ya.Starobogatov (2004), Z.Izzatullayev (2019), I.A.Barishyev (2023); gidrobiontlarni ekologik jihatlarini o'rganishda R.Sawyer (1974), V.Sladecek, V.Kosel (1984), T.Robert (2004), N.D.Kruglov (2005), A.Stadnichenko (2006), N.Kubova va J.Schenkova (2014), Z.Izzatullayev (2019) metodlari asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot ma'lumotlarning statistik tahlil qilish "Statistica" dasturida bajarilgan.

Dissertatsiyaning "O'rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlarining tur tarkibi va ekologik tavsifi" deb nomlangan uchinchi bobida O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlardan zuluklar, ikkipallali va qorinoyoqli mollyuskalar hamda yuksak qisqichbaqalarning har bir turiga morfo-ekologik tavsif berilgan, ularning tarqalishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'rta Zarafshon daryo havzasida zuluklarning 5 oila 7 uruqqa mansub 8 turi tarqalganligi aniqlandi. Zuluklar sistematikasi R.Sawyer (1986) taksonomiyasiga asosan quyidagicha tuzildi.

Zuluklar:

Annelida (Lamarck, 1809) tipi

Clitellata (Michaelsen, 1919) sinfi

Hirudinea (Lamarck, 1818) kenja sinfi

Rhynchobdellida (Blanchard, 1894) turkumi

Glossiphoniiformes (Tessler and de Carle, 2018) kenja turkumi

Glossiphoniidae (Vaillant, 1890) oilasi

Hemiclepsis (Vejdowsky, 1884) urug'i: 1. *H. marginata* (Müller, 1774);

Alboglossiphonia (Lukin, 1976) urug'i: 2. *Al.hyalina* (Müller, 1774); *Helobdella* (Blanchard, 1896) urug'i: 3. *H.stagnalis* (Linnaeus, 1758)

Arhynchobdellida (Blanchard, 1894) turkumi

Hirudiniformes (Caballero, 1952) kenja turkumi

Hirudinidae (Whitman, 1886) oilasi

Hirudo (Linnaeus, 1758) urug'i: 4. *Hr. verbana* (Carena, 1820), 5. *Hr.orientalis* (Utevsky et Trontelj, 2005);

Praobdellidae (Sawyer, 1986) oilasi

Limnatis (Moquin-Tandon, 1826) urug'i: 6. *L.paluda* (Tennent, 1859);

Haemopidae (Richardson, 1969) oilasi

Haemopis (Savigny, 1822) urug'i: 7. *H.sanguisuga* (Linnaeus, 1758);

Erpobdelliformes (Sawyer, 1986) kenja turkumi

Erpobdellidae (Blanchard, 1894) oilasi

Erpobdella (Blainville, 1818) urug'i: 8. *E. octoculata* (Linnaeus, 1758).

Mazkur hududda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ikkipallali mollyuskalarning 3 oila 6 uruqqa mansub 10 tur va 2 kenja turi tarqalganligi aniqlandi. Ikkipallali mollyuskalar Z.Izzatullayev (2019) taksonomiyasiga asosan quyidagi sistematik ro'yxati tuzildi.

Ikkipallali mollyusklar:

Bivalvia (Linne 1758) sinfi

Unioniformes Stoliczka, 1871 turkumi

Unionidae Rafinesque, 1820 oilasi

Sinanodonta Modell, 1944 urug'i: 1. *S.gibba* (Benson, 1842); 2. *S.puerorum* (Heude, 1880); 3. *S.orbicularis* (Heude, 1880);

Colletopterum Bourguignat, 1881 urug'i: 4. *C. bactrianum* (Rolle, 1897);

Ponderosiana Bourgiugnat, 1881 kenja urug'i: 5. *C.(P.) cyreum sogdianum* (Kobelt, 1896); 6. *C.(P.) ponderosum volgense* (Shadin, 1938);

Cardiiformes (Ferussac, 1821) turkumi

Corbiculidae (Gray, 1847) oilasi

Corbicula (Megerle von Muhlfield, 1811) urug'i: 7. *C. cor* (Lamarck, 1818); 8. *C. fluminalis* (Muller, 1774); 9. *C. purpurea* Prime, 1864;

Corbiculina Dall, 1903 urug'i: 10. *C. tibetensis* (Prashad, 1929); 11. *Corbiculina ferghanensis* (Kursalova et Starobogatov, 1971);

Euglesidae Pirogov et Starobogatov, 1972 oilasi

Euglesa Jenyns, 1831 urug'i: 12. *E. turkestanica* Izzatullaev, 1974.

O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida tarqalgan qorinoqqli mollyuskalarning ekologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ularning 4 oila 5 uruqqa mansub 14 turi tarqalganligi aniqlandi. Qorinoqqli mollyuskalar Z.Izzatullayev (2019) taksonomiyasiga ko'ra sistematik ro'yxati tuzildi.

Suv qorinoqqli mollyuskalari:

Gastropoda Cuvier, 1795 sinfi

Littoriniformes (Pchelintsev, 1863) turkumi

Belgrandiellidae Radoman, 1983 oilasi

Martensamnicola Izzatullaev, Sitnikova et Starobogatov, 1985 urug'i: 1. *M. brevicula* (Martens, 1874); 2. *M. hissarica* (Zhadin, 1950);

Bucharamnicola Izzatullaev, Sitnikova et Starobogatov, 1985 urug'i: 3. *B. bucharica* (Zhadin, 1952);

Lymnaeidae Rafinesque, 1815 oilasi

Lymnaea Lamarck, 1799 urug'i: 4. *L. stagnalis* (Linnaeus, 1758); 5. *L. truncatula* (Müller, 1774); 6. *L. thiessea* (Clessin, 1979); 7. *L. oblonga* (Puton, 1847); 8. *L. subangulata* Roffiaen, 1868; 9. *L. auricularia* (Linnaeus, 1758); 10. *L. bactriana* (Hutton, 1849);

Physidae Firzinger, 1833 oilasi

Costatella Dall, 1870 urug'i: 11. *C. acuta* (Draparnaud, 1805)

Planorbidae Rafinesque, 1815 oilasi

Planorbis (Geoffroy, 1767) urug'i: 12. *P. planorbis* (Linne, 1758); 13. *P. tangitarenensis* (Germain, 1878);

Anisus Studer, 1820 urug'i: 14. *A. ladacensis* (Nevill, 1878).

O'rta Zarafshon suv havzalarida yuksak qisqichbaqalar ilk bor o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuksak qisqichbaqalarning 1 turi tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Yuksak qisqichbaqalarning Fetzner Jr. (2005) taksonomiyasiga ko'ra sistematik ro'yxati tuzildi.

Yuksak qisqichbaqa:

Arthropoda Gravenhorst, 1843 tipi

Malacostraca Latreille, 1802 sinfi

Decapoda Latreille, 1802 turkumi


Astacidae Latreille, 1802 oilasi

Pontastacus Bott, 1950 urug'i: *P. leptodactylus* (Eschscholtz, 1823).

Yuqoridagi turlarning morfologik va ekologik tavsifi hamda ularning tarqalishiga oid yangi ma'lumotlar dissertatsiyada qayd etilgan. Izlanishlar davomida tadqiqot hududi faunasi uchun ilk bor zuluklardan: *Helobdella stagnalis*, *Hirudo verbena*; ikkipallali mollyuskalardan: *Sinanodonta gibba*, *S. puerorum*, *S. orbicularis*; qorinoyoqli mollyuskalardan: *Lymnaea stagnalis* va *L. bactriana* turlari aniqlandi.

Shu bilan birga tadqiqot hududida tarqalgan gidrobiontlarning o'lchamlari, ekologiyasi hamda tadqiqot hududi va dunyo bo'ylab tarqalishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'rta Zarafshon suv ekotizimlari gidrobiontlari orasida eng ko'p turga ega bo'lgan oilalardan: Unionidae va Lymnaeidae, eng kam turga ega bo'lganlardan: Haemopidae, Euglesidae, Physidae va Astacidae oilalari vakillari tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Zarafshon daryosi o'rta oqimi suv ekotizimlarida gidrobiontlar oila vakillarining uchrash ko'rsatkichi.

Mazkur bobda morfologik jihatdan o'zaro o'xshash bo'lgan ayrim gidrobiontlardan *E. turkestanica*, *P. leptodactylus*, *C. fluminalis* va *C. ferghanensis* turlari molekulyar-genetik tahlil qilinib, Genbanki bazasiga joylashtirildi. Bu esa aniqlangan turlar to'g'risida ma'lumot olishda muhim ahamiyatga ega.


Dissertatsiyaning "**Tadqiqot hududi gidrobiontlarining tarqalishi, ekologik guruhlari va bioxilma-xillik ko'rsatkichlari**" deb nomlangan to'rtinchi bobida O'rta Zarafshon daryo havzasi zuluklari, ikkipallali va qorinoyoqli mollyuskalari, yuksak qisqichbaqalarining daryolar, suv omborlari, kanallar hamda chashma va buloqlar kesimidagi turlar tarkibi, tarqalish biotoplari va ekologik guruhlari oida tadqiqot natijalari bayon etilgan.

O'rta Zarafshon hududidagi Zarafshon, Oqdaryo va Qoradaryo kabi daryolarda gidrobiontlarning biologik xilma-xilligi, shu bilan birga ekologik guruhlari va biotoplarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar natijasida Zarafshon daryosida gidrobiontlarning Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Astacidae, Glossiphoniidae, Hirudinidae, Praobdellidae, Haemopidae va Erpobdellidae oilalariga mansub bo'lgan 31 turi tarqalgan bo'lib, zuluklarning 8 turi, ikkipallali mollyuskalarning 9 turi va 2 kenja turi, qorinoyoqli mollyuskalarning 11 turi, qisqichbaqalarning 1 turi tarqalganligi aniqlandi. Tadqiqot hududida olib borilgan izlanishlar natijasida Zarafshon milliy tabiat bog'i va

Ziyovuddin hududidagi gidrobiontlar tarqalishi zichligi, Oqdaryo daryosi Chelak hududi va Oqdaryo suv ombori hududida gidrobiontlar tarqalish zichligi, Qoradaryoning Taltg‘ulon va Narpay tumani hududida gidrobiontlar tarqalish zichligi aniqlandi hamda hududlar bir-biri bilan taqqoslanib, tahlil qilindi.

O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan zuluklarning peloreofil (1 tur), krenofil (1 tur), litoreofil (1 tur), fitolitoreofil (2 tur), fitopelofil (3 tur); ikkipallali mollyuskalarning peloreofil (8 tur), reofil (2 tur), pelolimnofil (1 tur), krenofil (1 tur); qorinoyoqli mollyuskalarning fitofil (8 tur), telmatofil (1 tur), reofil (1 tur), fitoreofil (1 tur), krenofil (1 tur), peloreofil (2 tur); yuksak qisqichbaqaning fitofil (1 tur) ekologik guruhlariga ajratilgan.

Gidrobiontlarning ekologik guruhlarini daryo havzasi 3 hududi bo‘yicha: yuqori (Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi), o‘rta (Oqdaryo suv ombori hududi) va quyi (Narpay tuman hududi) qismlari o‘zaro taqqoslangan (3-rasm).




3-rasm. O‘rta Zarafshon daryosi bosh qismi, o‘rta qismi va quyi qismlaridagi gidrobiontlarning ekologik guruhlarini.

Tahlil natijasiga ko‘ra, Zarafshon daryosi o‘rta oqimidagi daryolarida gidrobiontlarning ekologik guruhlarini ichida peloreofil va fitofil guruhlarining ustunlik qilishi kuzatildi. Sababi turlar tarqalishi uchun oqar suvli va o‘simliklar ko‘p o‘sgan hududlar katta, qulay muhit sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot hududi suv omborlari, kanallari, buloqlari va chashmalari, suv ekotizimlarida gidrobiontlarning bioxilma-xilligi tahlil qilindi. Unga ko‘ra daryo havzasida turli suv tiplarida gidrobiontlar bioxilma-xilligi farqlanishi aniqlangan (4-rasm).

Tadqiqot hududi daryolarida bioxilma-xillikning Shennon indeksi bo‘yicha ko‘rsatkichlari (H') 1,1 – 2,3 bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi va eng past ko‘rsatkich Narpay hududi suv tiplarida aniqlandi. Suv omborlarida mazkur ko‘rsatkich (H') 1 – 2,4 ga teng, eng yuqori turlar xilma-xilligi Kattaqo‘rg‘on va aksincha, eng past holat To‘sinsoy suv omborlarida kuzatilgan. Kanallarda gidrobiontlar xilma-xilligi (H') 1,3 – 1,8 bo‘lib, eng yuqori Darg‘om kanalida, eng past Qorasuv kanalda kuzatilganligi qayd etilgan. Gidrobiontlarga

ta'sir etuvchi antropogen va atrof-muhitning abiotik omillari turlicha bo'lganligi sababli biologik xilma-xillik indekslardagi farqlanishlar aniqlangan.




Daryolar: 1 – Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi (Zarafshon daryosi), 2 – Ziyovuddin hududi (Zarafshon daryosi), 3 – Chelak shahri (Oqdaryo), 4 – Oqdaryo suv omboridan keyingi hududi (Oqdaryo), 5 – Talig‘ulon hududi (Qoradaryo), 6 – Narpay hududi (Qoradaryo); **Suv omborlari:** 7 – Kattaqo‘rg‘on, 8 – Qorasuv, 9 – To‘sinsoy, 10 – Oqdaryo, 11 – Qoratepa, 12 – Sabirsoy; **Kanallar:** 13 – Qoramuyin, 14 – Miyaqol-Xatirchi, 15 – Mirzaariq, 16 – Qorasuv, 17 – Darg‘om.

4-rasm. O‘rta Zarafshon daryo havzasi turli suv tiplarida gidrobiontlarning bioxilma-xillik Shannon indeksi (H').

Dissertatsiyaning “**Gidrobiontlarga abiotik va antropogen omillarning ta’sirini baholash**” deb nomlangan beshinchi bobida suv ekotizimlarida gidrobiontlar tarqalishiga abiotik omillarning ta’siri yoritilgan bo‘lib, unda O‘rta Zarafshon suv ekotizimlarida gidrobiontlarga suvdagi abiotik omillardan suv harorati, tiniqlik darajasi, oqim tezligi, suvdagi kislorod miqdori va pH ko‘rsatkichlarining ta’siri yoritilgan.

Gidrobiontlarning hayot kechirishi, ko‘payishi va ulardagi fiziologik jarayonlarning normal kechishida kuchli ta’sir o‘tkazuvchi abiotik omillardan biri – suvning pH ko‘rsatkichi hisoblanadi. Izlanishlar davomida tadqiqot hududida keng tarqalgan Unionidae va Lymnaeidae oilalariga mansub mollyuskalarga suv pH omilining ta’siri tabiiy va laboratoriya sharoitlarida tekshirildi (5-rasm).



5-rasm. Unionidae va Lymnaeidae oilalariga mansub mollyuskalarning suv pH omiliga nisbatan ta’sirchanligi.


Natijalarga ko'ra, O'rta Zarafshon suv ekotizimlarida tarqalgan Unionidae va Lymnaeidae oilalariga mansub mollyuskalar suv pH-muhitining 6-9,6 ko'rsatkichida optimal yashovchanlikni namoyon qildi. Mazkur omilga nisbatan *S. gibba* va *L. truncatula* keng diapazonda hamda *S. orbicularis* tor diapazonda chidamlilik namoyon qilishi kuzatildi. Ushbu omil mollyuskalarni suv tiplari bo'yicha tarqalishiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Suvning harorati – gidrobiontlarning nafas olishiga, ko'payishiga, tarqalishiga, harakatlanishiga va boshqa ko'plab muhim hayotiy jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tadqiqotlarda Unionidae va Corbiculidae mollyuska oilalari turlari uchun suv muhiti haroratining ta'sir etishi tahlil qilindi. Ushbu oilalarga kiruvchi *Sinanodonta gibba*, *S. orbicularis*, *S. puerorum*, *Colletopterum bactrianum*, *C. cyreum sogdianum*, *C. ponderosum volgense*, *Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea*, *C. tibetensis*, *C. ferghanensis* uchun suv haroratining kuchsiz minimum ta'siri +1 ... +11°C, qulay ta'sir etuvchi optimal harorati +12 ... +22°C va kuchli maksimum ta'siri +22°C dan yuqoriligi tadqiqot hududi sharoitida aniqlandi. Ushbu turlar suv havzasining nisbatan chuqur qatlamlarida bentos organizmlar sifatida hayot kechirishi sababli haroratning ta'sir ko'rsatishi boshqa gidrobiontlardan ma'lum darajada farqlanadi.

O'rta Zarafshon daryo havzasi suv tiplarining joylashuv o'рни, balandlik mintaqasi, suvning harorati kabi omillariga bog'liq holda erigan kislorod konsentratsiyasi farqlanishi aniqlandi. Masalan, hududda suvda erigan kislorod miqdori yillik o'rtacha 7 mg/l ni tashkil etdi. Ushbu kislorod omili jabra bilan nafas oluvchi ikkipallali mollyuskalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi laboratoriya sharoitidagi tadqiqotlaridan ma'lum bo'ldi. Ya'ni, suvda erigan kislorod 6-8 mg/l konsentratsiyasida ikkipallali mollyuskalar yashashi uchun optimal ko'rsatkich sifatida qayd etildi.

Gidrobiontlar orasida suv qorinoyoqli mollyuskalardan *Lymnaea* urug'i vakillari chorva hayvonlarining gelmintlariga oraliq xo'jayin bosqichida ishtirok etadi. Bu o'z navbatida gelmitoz kasalliklarini oldini olishda muhim hisoblanadi. Izlanishlar davomida *Lymnaea* urug'i vakillarining hozirda va kelajakdagi tadqiqot hududida taqsimlanishi bioiqlimiy modellashirildi va unda qizg'ish rangga tomon *Lymnaea* urug'iga mansub turlarning tarqalishi uchun qulay bo'lgan hududlar aks etgan bo'lsa, binafsha rangga tomon turning tarqalishi cheklanib borishi ko'rsatilgan. Kichik kvadrat shakldagi oq rangli nuqtalar yig'ilgan namunalarning tarqalish biotoplari hisoblanadi. Ushbu bioiqlimiy model tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, turlar populyatsiyasi o'rtasidagi biotoplarning o'zaro bo'lishligi ularning barqaror va keng tarqalishiga imkon yaratadi (6-rasm).

